

Zamin tilsimlaridan lavhalar

«Irrigatsiya va melioratsiya» kafedrası dotsenti Adham Mamataliyev rahbarligida «Suv xo'jaligi va melioratsiya» ta'lim yo'nalishi 402-guruh talabalari Toshkent shahridagi Geologiya muzeyiga tashrifni amalga oshirdilar. Tashrifdan maqsad talabalarni mamlakatimiz geologiya sohasining yutuqlari bilan tanishtirish, bu sohadagi bilimlarini boyitish va kengroq ma'lumotlarga bo'lish imkoniyatini yaratishdan iborat edi.



Muzeylar ma'naviy yetuk, komil insonni tarbiyalashda o'ziga xos o'rin tutadi. Barchamizga ma'lumki, muzeylarda saqlanayotgan noyob eksponatlar orqali fuqarolarda, ayniqsa yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, bebaho tarixiy va madaniy merosga hurmat, g'urur va iftixor, Vatanga sadoqat va muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash va kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.



Geologiya muzeyining ko'rgazmalar zallarida dunyo ahamiyatiga molik bo'lgan Respublikamizning noyob geologik merosi ekspozitsiyalari mavjud. Muzeyning zallarida eksponatlar va boshqa ko'rgazmalar materiallari namoyish etiladi. Har bir muzeyga keluvchilar muzeydagi saqlanib qo'yilgan tarixiy obidalarni hamda tabiiy boyliklarning noyob turlarini ko'rib, o'zida yurtiga nisbatan g'urur tuyg'usini his qiladilar. Bu esa barkamol avlodning shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Talabalar muzey eksponatlarini maroq bilan tomosha qildilar. Bu tashrif talabalarda katta taassurotlar qoldirdi.

TIQXMMI matbuot xizmati